

MO'MINJON TOSHQINNING “TURMUSH URUNISHLARI” ASARIDA TO’Y MAROSIMLARINING AKS ETTIRILISHI

*Sherg'oziyeva Gulnozaxon Adaxamjonovna
Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

Annotatsiya: maqolada “Turush urunishlari” asarida xalqimizning XIX asr oxiri XX asr asr boshlaridagi milliy an’ana va urf odatlari, to’y bilan bog’liq marosimlar va ularning o’tkazilishi, nomlanishi tadqiq etilgan.

Kalit so’zlar: “Xotin oshi”, “Qiz oshi”, “Kengash oshi”, “Patir ushatar”, “Omiq – somiq”, “Kichik to’y”, “Katta to’y”, “Sarupo bazm”, “Nikoh bazm”, “Katta charlar”, “Kichik charlar”, “Yuz ko’rsatar”, “Kuyov keldi”, “Kelin tushdi”.

Mo’mjon Toshqin (Muhammadjonov)ning “Turush urunishlari” asari xalqimizning XIX asr oxiri XX asr asr boshlaridagi ijtimoiy, siyosiy va maishiy hayoti haqida hikoya qiladi. Tarixiy memuar asar hisoblangan ushbu xotira-qissada xalqimizning milliy an’ana va urf odatlari aks etgan lavhalar talaygina. Muallif ushbu asarda to’y bilan bog’liq marosimlar haqida alohida to’xtaladi.

“Turush urunishlari” asaridan muallif XX asrning 30-40-yillaridagi to’y marosimlarining o’tkazilishi bilan bog’liq voqeliklarni tabaqaviy jihatdan ro’yi-rost ochib beradi. Ya’ni boyroq kishilarning o’g’il to’ylari 3-4 kun, balki bir hafta davom etgan. Har kuni ikki-uch qozondan osh tarqatilgan. O’g’il to’yda ko’plab urf-odat va marosimlar bajarilgan. “Xotin oshi”, “Qiz oshi”, “Kengash oshi” deb nomlangan osh tarqatish udumlari bo’lgan. “Xotin oshi”ga qozon osilgan kuni yuztacha ayollar yig’ilgan, “Qiz oshi” qizlarga tarqatilgan. Shu kun kechqurun mahalla va boshqa yerlardan yurtning kattalari va ishbilarmonlaridan 15-20 tachasi chaqirilib “Kengash oshi” berilib, mahalla-mahalladan kishilar ro’yxati tuzilgan. Har kun 50-60 mahallaning har biridan 20-30 kishi yozilib, da’vatnomalar tarqatilgan. Yana shunday odatlari bo’lganki, sahar namozdan so’ng yosh-u qari, katta-yu kichik yoppasiga oshga chaqirilibgina qolmay, quyidagicha isrofgarchiliklar ham ularga urf bo’lgan: “Har kishiga katta - kichiklik 4 turli non, har 2-3 kishiga bir lagandan osh va yosh bolalarg’a 2 dona, bir donadan mayda non tortiladir”[1:B.165]. Xatna to’ylari bayonida “Iroq yovi” degan osh tarqatish udumi ham mavjud bo’lib, muallif uni shunday izohlaydi: “O’z mahalla kishilari chiqib ketgandan keyin, boshqa mahallalardan “Iroq-yovi” (yiroq - yovi) kelib, osh yeb keta boshlaydilar. Har mahallaning “imom domla”si ham oti chiqqan ‘boobro’ kishilariga “chopon” kiyg’izilib yuboriladir.

Domla imomlar bilan mudarrislarga berilgan “to’n bir so’m, bir so’m, tillalik tiyindan oshmasa ham “qozi”, “mingboshi”larniki 4-5 so’mliq bo’ladir”[2:B.165]. To’y kunlari hamma joyda bo’lgani kabi o’yin-kulgi boshlaib, ertadan soat 10-11

largacha tom boshida nog'ora ham surnaylar chalinib turgan. 2-3 chaldirilib, hofizlarga ashulalar aytirish odat bo'lgan. Da'vatnomalar ham konvertlarga solinib yuborilgan.

Bularning barchasini muallif isrofarchilik deb ataydi va bu isrofarchilikning sababini ba'zi kishilar noilojlikdan, kishilarning ta'na-dashnomalariga qolib ketmaslik uchun majburiyat yuzasidan ham shunday qilishlarini izohlab o'tadi: "Mana shunday bir ming (1000) so'mdan ortiqroq chiqimlar isroflar bilan boy bolalarini kesdiradirlar. Sira topolmog'an kishi 60-70 so'm chiqim qiladir, bo'lmasa xalqning so'zidan ta'nasidan bosh ko'tarib yurolmaydir"[3:B166].

XX asr boshlarida nikoh to'ylar xalqimiz orasida "Qiz to'yi", "Kelin-kuyov to'yi" nomlari bilan yuritilgan. Qiz (kelin - kuyov) to'yida juda ko'p marosimlar mavjud bo'lib, ular "Patir ushatar", "Omiq - somiq", "Kichik to'y",

"Qozon qaytarishi", "Katta to'y", "Sarupo bazm", "Nikoh bazm", "Katta charlar", "Kichik charlar" yoki "Yuz ko'rsatar" kabi nomlar bilan atalgan. Bu marosimlarning barchasi ortiqcha chiqimlar, ovoragarchiliklar va isrofarchiliklar hisobiga o'tgan.

Qadimdan barcha to'y marosimlarining o'tkazilishida ayollarning hissasi katta bo'lgan. Nikoh to'yi marosimi ayollarning sovchilikka borishlaridan boshlangan: "Bir kishi o'g'lini uylantiradirg'an bo'lsa, boshlab 2-3 xotinlardan har yoqqa yuborib "qiz" izlotadir. Ular ham eshikdan-eshikka, mahallada-mahallaga bir necha kun yurib, eng keyin bir qizni yoqtiradirlar. So'ngra yigit tomon, 1-2 to'qqiz potir non ham boshqa 2-3 turli mevalardan olib qo'shib, 2-3 xotinni qizning uyiga yuboradir; Borg'an xotinlar, "ro'mol" o'rav keladirlar. Buning otini "patir ushatar" deyiladir"[4:B.166]. Bundan keyingi ziyofat qizning uyida bo'ladi, qizning otasi yigit tomonidan kelgan uch-to'rt mehmonni yaxshi ziyofat qiladi hamda bir-ikki kishini qudalar bilan gaplashish uchun vakillikka saylaydilar: "Qizning vakillari: bir necha yuz so'm pul, 1-2 to'qqiz qo'y, bir ot, g'allaning har turlisidan (gurch, bug'doy ham boshqa donlardan) 2-3 botmondan 1-2 'kasava'da "holva", 400-500 kishiga yetarlik moiz non so'raydirlar. Ikki tomon bir oz tortishib bir qarorg'a kelganlaridan keyin, qizning otasi mehmonlarga osh yedirib ham bir-bir chopon kiygizib jo'natadir. Buning otini: "omiq-somiq" deyadirlar"[5:B.166]. Bu yugur-yugurlar shu bilan tugamaydi, kishilarning ovoragarchiliklari "Kichik to'y", "Qozon qaytarishi" kabi marosimlarda davom etadi: "So'ngra yigit tomoni: bir kichikroq qozonda osh damlab, uning yonig'a 20-30 kishiga yetarlik holva, moiz non qo'shib bir aravaga ortib, qizning uyiga yuboradir; shunda qizning ostonasig'a beriladirgan 50 dan 100 so'mgacha aqchasi ham bo'ladir. Buni: "kichik to'y" deyadirlar. Ertasiga, qiznikidan osh keladir; buni "qozon qaytarishi" deyiladir. Qizning otasi: -katta to'yni falon choqda qilamiz! - deb, vaqt belgilamaguncha, kuyov uyidan qiznikiga: har yakshanba, har panjshanba kunlari bir barkash osh, bir ro'mol kulcha borib turadir"[6:B.166]. Shuningdek, bulardan tashqari,

“Kuyov keldi”, “Kelin tushdi” , “Maqr” kabi urf-odatlar ham kitobda keng va batafsil aynan o’tkazilgan to’y misolida yoritilgan.

Ko’ringanidek, bu davrda to’y marosimi anchayin keng va o’ziga xos tarzda bo’lib o’tgan. M. Toshqin asarda to’y marosimlarini berish orqali davrning nafaqat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti, balki maishiy hayoti bilan ham o’quvchini tanishtiradi. Zero, bu mumtoz nasr namunasi “Boburnoma” asaridagi xalq urf-odatlarining, marosimlarining yoritilishi masalalarini ana’anaviy tarzda davomiyligi haqidagi xulosaga kelishimizga asos bo’la oladi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Mo’mjon Muhammadjonov. -Tur mush urunishlari / So’zboshi va nashrga tayyorlovchi Muqaddas Tojiboyeva. -Toshkent: MUMTOZ SO’Z, 2016.
2. Qosimov B va boshqalar. Milliy uyg’onish davri o’zbek adabiyoti.-Toshkent: Ma’naviyat, 1999.
3. Tojiboyeva M. Jadid adabiyoti va mumtoz an’analar-Toshkent: MUMTOZ SO’Z, 2011.